

O'smirlarda suitsidal xulqning xavfi borasida o'tkazilgan so'rovnomaning «O'smirlar jamoasida yakkalanish» muammosi bo'yicha olingan natijalar tahlilida Jizzax shahri, Sh.Rashidov, G'allaorol va Baxmal tumanlarida (26,0; 28,0; 32,0;48,0) yuqori ko'rsatkich aniqlandi.

O'smirlik yoshining kichik o'smirlik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha asosiy faoliyati shaxsning intim mulqoti, katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri – 15 yoshdan 16 yoshgacha, asosiy faoliyati o'qish, kasb tanlash o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi psixologik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu davrda o'smir hayotida, psixikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Uning o'ziga va atrofida bo'lgan munosabati boshqacha xarakter kasb etadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlar tizimi o'zgaradi, o'z «men»ining ahamiyati ortadi. Demak, Sh.Rashidov, G'allaorol va Baxmal tumanlari va Jizzax shahri ta'lim muassasalari o'quvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarning salbiy xususiyatlari o'smirlar jamoasida o'z o'rnini topa bilmaslik, kamsitilishi, jamoadagi o'z o'rnining yo'qolishi, o'smirning o'z «men»i inkor qilinishi o'smirlarda suitsidal xulq xavfining oshishiga ta'sir qilishi mumkinligi tadqiqot natijalarida o'z aksini topgan.

O'smirlardagi suitsidal xulq xavfini yuzaga chiqishida «passivlik, jur'atsizlik, tobelik» xususiyatlarining ta'siri aniqlandi, bu xususiyatlar o'smirlardagi hayotga, atrof muhitga va insonlarga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligi tadqiqot natijalari asosida o'rganildi.

O'smirlardagi suitsidal xulq xavfi namoyon bo'lishiga o'ziga past baho berish, pubertat davrining og'ir kechishi, alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish holatlari ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suitsidal xulq ularda g'ayritabiiylik, voqea-hodisalarga real baho bera olmaslik, o'zidan qoniqmaslik holatlari asosida yuzaga chiqishi aniqlandi.

Maktab psixologlari va ijtimoiy psixologlarga o'smirlardagi suitsidal xulq xavfining shakllanishini oldini

olish borasida quyidagi holatlarga e'tibor qaratishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim:

- «Oila» ilmiy-amaliy markazi, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari xodimlari, pedagog va tarbiyachilar, ota-onalar bilan o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar va ushbu holatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik masalalari bo'yicha o'quv kurslari, seminar-treninglar tashkil etish, ushbu o'quv kurslariga notinch, noto'liq oila vakillarining faol ishtirokini ta'minlash;

- o'smirlar o'rtasida suitsidal harakatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarni amalga oshirishda milliy odatlarimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizdan keng foydalanish;

- ommaviy axborot vositalari, internet saytlari orqali sog'lom turmush tarzi, o'zaro hurmat, tushunish, hamdardlik ruhini shakllantiruvchi, o'smirlar ruhiyatiga xos eshittirishlar, munozaralar, filmlar namoyishlarini tashkil etish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, har bir yosh davriga xos bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunli tashkil etish;

- oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada mazmunli rivojlantirish;

- mahalla bilan hamkorlikda oiladagi turmush tarzi bilan muntazam tanishib, ijtimoiy ta'sir ko'rsatib borish;

- mahallada oila pasportini tashkil etish va shu pasport orqali har bir oilaning ijtimoiy psixologik turmush tarziga baho berib borish;

- mahalla tomonidan oilaviy pasport orqali oilalarni tabaqalashtirish, ya'ni mahalla bilan hamkorlikda oilaning har bir a'zosini o'rganib borish;

- hududlarda psixologik markazlarni tashkil qilib, aholiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatib borish;

- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktab psixologlari bilan hamkorlikda oiladagi iqlimni mukammal o'rganib, mahalla ko'magida ijtimoiy psixologik ko'mak berib borish.

Adabiyotlar

1. Гилинский Я.И. Самоубийство как социальное явление. Проблемы борьбы с девиантным поведением. – М.: 1989. –С.114.
2. Дюркгейм Э. Самоубийство. СПб.: «Союз», 1998. –С.496.
3. Ефремов В.С. Основы суицидологии. СПб., 2004. –С.479.

REZYUME. Maqolada demografik va gender jihatdan suitsidal xulq xavfini yuzaga kelishi masalalari yoritilib, ulardagi suitsidal xulq xavfi namoyon bo'lishiga o'ziga past baho berish, alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish holatlari ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suitsidal xulq ularda g'ayritabiiylik, voqea-hodisalarga real baho bera olmaslik, o'zidan qoniqmaslik holatlari asosida yuzaga chiqishi aniqlanganligi haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье освещены вопросы риска суицидального поведения с учетом демографических и гендерных особенностей, а низкая самооценка, употребление алкоголя и наркотиков также могут оказывать влияние на риск суицидального поведения у них. Установлено, что суицидальное поведение у них возникает на основе ненормальности, неспособности реально оценивать события, недовольства собой.

SUMMARY. The article highlights the risk of suicidal behavior taking into account demographic and gender characteristics, and low self-esteem, alcohol and drug use can also affect the risk of suicidal behavior in them. It has been established that their suicidal behavior arises on the basis of abnormality, the inability to realistically evaluate events, and dissatisfaction with oneself.

MILLATLARARO OILALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TIPOLOGIYASI

M.O.Roziqova – assistent o'qituvchi

Nukus innovatsion instituti

Tayanch so'zlar: oila, nikoh, bag'rikenglik, millat, millatlararo, baynalminal, bietik oilalar, urf-odat.

Ключевые слова: семья, брак, толерантность, нация, межнациональный, интернациональный, биэтнические семьи, традиция.

Key words: family, marriage, tolerance, nation, international, bi-ethnic families, tradition.

Oila bu jamiyatning bir bo'g'ini bo'lib uning mustahkamligi, tinchligi o'z navbatida jamiyatning tinchligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Oila muqaddas makon deyilishiga sabablardan biri unda kelajak va hayotimizning davomiyligini ta'minlovchi shaxslar yetishtiriladi. Shuning uchun ham oila, uning jabhalarini o'rganib chiqish fanlar oldida turgan eng muhim masalalardan biridir.

Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi

mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi [2:296].

Oilaning ko'plab turlari mavjud. Bularga misol tariqasida to'liqligiga ko'ra oila turlari, bo'g'inlar soniga ko'ra, bolalar soniga ko'ra oilalar turlari kabi ko'plab oila turlari farqlanadi. Turmush qurgan yigit va qizning, ya'ni er-xotinning millatiga ko'ra esa oilalar: bir millatli hamda baynalminal oila turlariga bo'linadi.

Aynan mana shu turdagi oilalar, ya'ni millatlararo nikohlar qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, hozirgi kun-

da ham ko'payib bormoqda. Odamlarning sayohat qilishi, yangi hududlarni o'zlashtirishi, ko'chib o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan hududlarning mos ravishda ortib borishi millatlararo nikohlarning soni ortib borishiga sabab bo'lgan. Bunday nikohlar etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning namoyon bo'lishidan biriga aylandi va shu bilan birga millatlararo yaqinlashish omiliga aylandi, natijada milliy aralash oilalar ya'ni baynalminal oilalar paydo bo'ldi.

Hozirgi vaqtda ushbu turdagi nikohni aniqlash uchun quyidagi atamalar qo'llaniladi: millatlararo nikoh, aralash nikoh, ko'p madaniyatli nikoh va boshqalar. Mamlakatimizda esa bu kabi ikki millatli yoshlar o'rtasida qurilgan nikohlardan shakllangan oilalarni baynalminal oilalar deb aytiladi. Olimlar ushbu nikohlar va oilalarni qaysi nomlar orqali eng aniq tavsiflanishi haqida uzoq vaqt bahslar olib borishi mumkin. Millat atamasining kelib chiqishi etimologiyasi nuqtai nazaridan millatlararo nikoh tushunchasidan foydalanish eng to'g'ri hisoblanadi. Millatlararo nikohlar ko'p hollarda bir davlat ichidagi turli millat vakillari orasida tuzilsa, ba'zi hollarda esa boshqa-boshqa davlat fuqarolari, turli irqalar orasidagi nikohlar ham uchrab turmoqda.

O'zbekiston hududi qadimdan turli xalqlar va elatlar yashab kelgan mintqa hisoblanadi. "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiya vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi" [1:264-265]. Millatlararo nikohlar esa turli millat vakllari o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro qardoshlik rishtalari orqali yanada mustahkamlanishi hamda millatlararo totuvlikni ta'minlashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Baynalminal oilalarni o'rganish muammosi bugungi kundagi dolzarb bo'lib, buni dolzarblikni asoslovchi bir necha misollarni keltirish mumkin.

Birinchidan, hozirgi kundagi statistik ma'lumotlarga nazar soladigan bo'lsak, yildan-yilga baynalminal oilalar soni ko'rsatkichlarning ortib borishini kuzatmoqdamiz. Nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo yuzida millatlararo nikohlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlar buning sababini insonlar orasida muloqot doirasining kengayishi ya'ni, ijtimoiy tarmoqlarni ham asosiy sabablardan biri sifatida ko'rsatishmoqda. Baynalminal oilalar bir millatli oilalarga nisbatan er ham, xotin ham bir muncha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ya'ni boshqacha etnik tarbiya usuli, turlicha madaniyat ta'sirida voyaga yetgan turmush o'rtoqlarining xulq-atvori me'yorlariga, o'zgacha urf-odat va turmush tarziga duch kelishadi, ayniqsa ayollar. Har ikkala tomon ham bu urf-odat va turmush tarzini qabul qilishi va moslashishi juda osonlik bilan amalga oshmasligi mumkin. Yana bir xavflardan biri bu turmush o'rtoqlarning xulq-atvoridagi ba'zi kamchiliklar, xarakter xususiyatlari uning etnik kelib chiqishi bilan ham izohlanishi mumkin. Bu omillar esa bir millatli oilalar duch kelmaydigan konfliktli holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, hozirgi kunda oilalarning inqirozi, ajrimlarning soni ortib borayotganligi guvohi bo'lmoqdamiz. 2023 yil yanvar-sentabr oylarida ajrimlar soni 37,7 birlikni tashkil etib, 2020-yilga mos ravishda 17,7 mingga ko'paygani kuzatilgan [6]. Baynalminal oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish, ya'ni ushbu oilalarda er-xotin munosabati, rollar taqsimoti hamda nizolarning kelib chiqishini o'rganish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozlarning oldini olishga va oilalarning mustahkam bo'lishi uchun kerakli tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Baynalminal oilalarni o'rganish davomida dastlab uning tipologiyasiga yuzlanamiz. Mamlakatimizda G.Shoumarov o'z izlanishlarida oila turlarini tahlil qilish asosida baynalminal oilalarni quyidagi turlarini ko'rsatib o'tildi.

Baynalminal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin:

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar;

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar [2: 296].

Z.I.Aygumovanning "Bietnik oilaviy munosabatlar psixologiyasi" monografiyasida madaniy masofa indeksi (madaniy masofa indeksi til, din, turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi) asosida nikohlarning tasnifi mavjudligini aytib o'tib, unda bietnik oilalarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Er-xotinlar turli etnik guruhlariga, turli dinlarga mansub bo'lgan oila (ruslar – amerikaliklar, ruslar – nemislar, ruslar – xitoyliklar, ruslar-arablar). Ya'ni bir-biridan uzoq madaniyatli;

2. Er-xotinning bitta dini bo'lgan, ammo etnik kelib chiqishi har xil bo'lgan oilalar (ruslar – gruzinlar, ruslar – armanlar, ruslar – osetiyaliklar);

3. Er-xotinlar turli etnik guruhlariga mansub bo'lgan, ammo umumiy psixologik universallarga ega bo'lgan oilalar (ruslar-ukrainlar-belaruslar, dog'istonliklar-chechenlar-ingushlar);

4. Er-xotinlar bir xil etnik guruhga, bir dinga tegishli bo'lgan, ammo turli xil urf-odatlar, tillarga ega bo'lgan oilalar. Xuddi shu geosiyosiy makonda, bitta mintaqada yashovchi, umumiy psixologik asoslarga ega bo'lgan etnik guruhlar – (Darginlar-avarlar, laklar-Darginlar).

Belorusiyalik psixolog E.Stalmaxova esa Z.I.Aygumovanning bietnik oilalar tipologiyasini tahlil qilish asosida quyidagi fikrlarni keltiradi:

Millatlararo barcha nikohlarni men birinchi avlod va keyingi avlod nikohlariga, shuningdek, er-xotinning ikki, uch yoki bir nechta millatiga asoslangan nikohlarga ajrataman. Turli millatdagi erkak va ayol oila qurganda, ular birinchi avlod millatlararo nikohga ega. Ularning farzandlari allaqachon ikkinchi avlod nikohlarida bo'lishadi va hokazo [7].

Baynalminal oilalarni tasniflashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir jihat mavjud bo'lib bu turmush o'rtoqlarning gaplashadigan tili. Bir mamlakatda yashovchi boshqa-boshqa millat vakilari orasida qurilgan nikohlarda, agarda aloqa qiladigan tili bir bo'ladigan bo'lsa bu moslashuv jarayoni bir muncha tez va oson bo'lishi kuzatilgan. Biroq so'zlashuv tili boshqa bo'ladigan bo'lsa buning aksini kuzatishimiz mumkin. Bu omillarning barchasi baynalminal oilalarning turmush tarziga, nikohdan qoniqish hissiga ta'sir qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida shuni xulosa qilib ayta olamizki, baynalminal oilalarni o'rganish, ushbu oilalarda er-xotin munosabatlarining psixologik xususiyatlarini, rollar taqsimoti, farzand tarbiyasidagi o'ziga xos xususiyatlarni hamda bu tipdagi oilalarda nizolarning kelib chiqish sababini aniqlashga yordam beradi va bu ma'lumotlar asosida ikki millatli oila vakillari, birga oila qurishga qaror qilgan ikki millatli yosh yigit va qizlarga kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Buning natijasida esa yana bir tipdagi oilalarning mustahkamlanishiga, baynalminal tipdagi oilalarda ajrimlarning oldi olinishiga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп қўлланма. – Т.: «Маънавият», 2019. 264-265-б.
2. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. / G'.B.Shoumarovning tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. -T.: «Sharq», 2015. 296-b.
3. Aygumova Z.I. Bietnik oilaviy munosabatlar psixologiyasi [elektron resurs]: monografiya. -Elektron. berilgan. -Moskva: «Prometei», 2016.
4. Xudoyqulov X.J., Rasulova Z.R.. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Metodist nashriyoti", 2023,188-b.
5. Afonina N.I. Ko'p madaniyatli oilalarda bolalarni tarbiyalash xususiyatlarini o'rganish natijalari. Moskva davlat viloyat universiteti gazetasi. Seriya: Pedagogika. 2015. № 1. 8-14-b.
6. Stat.uz
7. <https://www.b17.ru/article/339217/>

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada baynalminal oilalar, millatlararo nikohlar, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ya'ni ushbu oilalarda nikoh oldi motivlari, oilaviy munosabatlar hamda ularning tipologiyasi haqida nazariy ma'lumotlar keltirilgan, psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются теоретические сведения о интернациональных семьях, межэтнических браках, их социально-психологических особенностях, т.е. добрых мотивах, семейных отношениях и их типологии в этих семьях, психологических особенностях.

SUMMARY. In this article, theoretical information about international families, inter-ethnic marriages, their socio-psychological characteristics, i.e. pre-marriage motives, family relations and their typology in these families, psychological characteristics are analyzed.

ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛИЙ КАДРИЯТЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ – ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИНИ ЎРГАНИШ

А.Т.Рўзикулова – психология фанлари бўйича фалсафа доктори

Навоий давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: ўзлигини англаш, миллат, миллий кадриятлар, идентификация.

Ключевые слова: самосознание, национальность, национальные ценности, идентификация.

Key words: self-awareness, nationality, national values, identification.

Хеч бир халқ ўзлигини англамасдан, миллий маданияти, миллий кадриятларини асраб-авайлаб сақламасдан туриб, бошқа халқларнинг кадриятларига ҳурмат билан қарай олмайди. Мустақил Ўзбекистоннинг куч-қудрати халқимизнинг умуминсоний кадриятларига содиқлигидандир. Жамият тараққиётининг муайян босқичларида ижтимоий, ҳодисаларга муносабат хилма-хил тарзда намоён бўлади. Хусусан, мустақиллигимизнинг биринчи кундан бошлаб ҳаётимизнинг барча жабҳаларида “Кадриятлар”, “Миллий тикланиш”, “Миллий онг”, “Миллий ғурур” каби атамалар тез-тез ишлатиладиган бўлиб қолди. Бу бежиз эмас, албатта. Зотан, мустақиллик, айни пайтда, миллий тикланиш ҳамдир. Уни эса мазкур тушунчаларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Аммо шунга таъкидлаш жоизки, катагончилик сиёсати ва тузуми даврида бу атамаларни ишлатиш ўқда турсин, уларни ҳатто ўзбекча лўғат бойлигидан сўриб чиқаришга ҳаракат қилинган эди. Бунга далил сифатида 1959 йили Москвада “Хорижий ва миллий лўғатлар давлат нашриёти” томонидан чоп этилган 40 мингдан ортиқ сўздан иборат “Ўзбекча-русча лўғат”га ҳам, 1988 йилдаги чоп этган 50 минг сўзлик “Ўзбекча-русча лўғат”га ҳамма жабҳаларда “Кадрият”, “Миллий тикланиш”, “Миллий онг”, “Миллий ғурур” тушунчаларини киритилмаганлигини айтиб ўтиш мумкин [2].

“Кадрият” ибораси ўз маъносиди мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг кенг қўлланила бошланди. Собик Иттифок даврида бу термин муомалада деярли учрамас, уни ўзбекча лўғат манбаларидан чиқаришга ҳаракат қилинган эди.

Шунингдек, ушбу терминлар 1981 йилда Москвадаги “Русский язык” нашриёти томонидан чоп этилган ва 60 минг сўзни камраб олган икки жилдлик “Ўзбек тилининг изоҳли лўғати”да ҳам учрамайди. Бошқа русча-ўзбекча лўғатларда ҳам “кадрият” сўзи қўлланилмаган. Жумладан, 1976 йилда “Фан” нашриётида чоп этилган “Ижтимоий-сиёсий терминлар лўғати”да “ценность” сўзининг тўртта маъноси лўғат мақоласи тарзида берилгани ҳолда уларнинг бирортасида “кадрият” маъноси ўз ифодасини топмаган. Истиклол шарофати билан миллий кадриятларни ўрганишга, тадқиқ этишга, улар тўғрисида мушоҳада юритиш ва ҳолис фикр билдиришга шароит яратилди [2].

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ўзбекон миллий кадриятларни асраб-авайлаш, уларни келажак авлодга етказиш ҳусусида фикр билдирар экан, “кадрият” сўзининг маъносини очиқ беради: “Биз тарих синовларидан ўтган, миллий манфаатларимиз, бугунги ва эртанги орзу-интилишларимизга, тараққиёт талабларига тўла жавоб берадиган, йиллар ўтгани сари кадри ортиб борадиган гоё ва тушунчаларни кадрият деб биламиз” [3]. Мустақиллик тўғрисида 1998 йилда Мустақиллик илмий-оммабоп лўғати чоп этилиб, бу тушунчаларнинг моҳиятини очиқ беришга муваффақ бўлинди. “Кадрият” атамаси бизга арабча “кадр” сўздан кириб келган бўлиб, бугунги кунда бу тушунча “борлик ва жамиятдаги бирор-бир нарса ва ҳодисанинг кишилар ўртасидаги, ўзаро ижтимоий муносабатлардаги тутган муҳим аҳамиятини ифода этиши учун қўлланилмоқда”. “Кадрият” ибораси инсонга, жамиятга нисбатан берилиб, таърифлангандагина муайян маънога эга бўлиши, аник мазмун касб этиши мумкин. Зеро, “кадрият” эҳтиёж ва манфаатларини қондирувчи жамики моддий ҳамда маънавий неъматлар тушунлади. Албатта, ҳеч бир буюм ёки воқеалик инсон ва унинг эҳтиёжларидан алоҳида олиб талкин этилганда бирон-бир кадр-қимматга эга бўлмайди [3].

Жамият ҳаётида мавжуд турли-туман кадриятларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, диний, миллий, маънавий мазмундаги кадриятларга ажратиш мумкин.

Таъкидлаш лозимки, кадриятларнинг жамият, давлат ва шахс ҳаётида тутган ўрни ва аҳамиятидан келиб чиққан ҳолда, фанда, хусусан фалсафа фани доирасида кадриятлар назарияси - аксиология шаклланди. “Кадрият” атамаси бугунги кунда ўзининг хақиқий маъносига эга бўлиш билан бир қаторда ижтимоий ҳаётда моҳият жиҳатдан тўғри қўлланишга эришилмоқда.

“Ҳуқуқий кадриятлар” - бу инсонлар, жамият ва давлат ўртасидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда фуқаролар томонидан эъзозланадиган, кадрланадиган, уларнинг манфаатларига хизмат қиладиган ҳуқуқий нормалар, гоёлар, қарашлар, институтлар, принциплар ва ҳодисалар йиғиндисидир. Кадриятлар инсон учун кадрли моддий ва маънавий неъматлар мажмуи дея талкин этиладиган бўлса,